

O'ZBEK AVTOMOBILSOZLIGIDA XALQARO TALABLARNING JORIY QILINISH TENDENSIYALARI

TRENDS IN THE INTRODUCTION OF INTERNATIONAL REQUIREMENTS IN THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

ТЕНДЕНЦИИ ВНЕДРЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРЕБОВАНИЙ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Umarov Xusanboy Nurmaxammedovich

Andijon mashinasozlik instituti, "Avtomobilsozlik" kafedrasi assistenti.

Annotatsiya: *Ushbu tezis transport vositalariga qo'yiladigan xalqaro talablarning O'zbekistonda qo'llanilish bosqichlari, bu borada O'zbekistonda qabul qilingan qarorlar, transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining olib borayotgan tashkiliy ishlari haqida ilk ma'lumotlar berilgan.*

Annotation: *This thesis provides preliminary information on the stages of application of international requirements for vehicles in Uzbekistan, the decisions taken in this regard in Uzbekistan, the organizational work of the Department of Transport Safety.*


Аннотация: В данной дипломной работе представлены первые сведения об этапах применения международных требований к транспортным средствам в Узбекистане, решениях, принятых в Узбекистане в этом отношении, а также организационной работе отдела транспортной безопасности.

Kalit so'zlar: *G'ildirakli transport vositalari, xavfsizlik bo'yicha xalqaro talablar, qarorlar, yangiliklar, bojhona texnik reglamenti, transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi.*

Ключевые слова: Колесные транспортные средства, международные требования безопасности, решения, новости, таможенно-техническое регулирование, департамент транспортной безопасности, Европейская экономическая комиссия ООН.

Keywords: *Wheeled vehicles, International safety requirements, resolutions, news, customs regulations, Department of Transport Safety, UN Economic Commission for Europe.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida transport vositalariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Transport vositalarini ishlab chiqarish ham shunga mos ravishda o'sib bormoqda. Albatta bu transport vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'rtasidagi raqobatni oshishiga hamda xavfsizlik talablari o'sishiga olib keladi. Xavfsizlik talablari transport vositasini ishlab chiqarishda unga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib, transport vositasining ushbu talablarga qay darajada javob bera olishi-uning jahon bozoridagi o'rnini belgilaydigan omillardan biri hamdir.



Biroq bugungi kunda yo‘l transport hodisalarining soni va unda halok bo‘lganlar va jarohatlanganlar soni o‘sishda davom etmoqda. Statistika bo‘yicha dunyo miqyosida o‘rtacha bir yilda 5 000 000 (besh million) odam yo‘l transporti hodisasi tufayli halok bo‘ladi va 30 000 000(o‘ttiz million) odam jiddiy jarohat oladi. Yana bir achinarli tarafi shundaki, ushbu jarohatlanganlarning beshdan bir qismi bir umrga nogiron bo‘lib qoladi. Ushbu ko‘rsatkich O‘zbekistonda yiliga o‘rtacha 9-10 mingtani tashkil etib, ularning 2000 (ikki ming) dan ortig‘ida odamlar qurban bo‘ladi [1]. Ushbu hodisalarining oldini olish, ko‘p jihatdan avtomobilning tehnik holatiga va qay darajada xavfsizlik talablariga javob bera olishiga bog‘liqdir. Bu borada respublikamizda ham bir qancha qarorlar qabul qilinib, islohotlar olib borilmoqda. Xususan; Avtotransport vositalari va ularning qismlariga bo‘lgan talablarni uyg‘unlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagagi "Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida"gi PQ-3526-son qarori qabul qilindi [2]. Kelishuv bilan yaratilgan o‘zaro tan olish mexanizmi avtomobil texnikasini ishlab chiqaruvchilar uchun muvofiqlikni baholash bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga zamin yaratdi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi quyidagi xalqaro kelishuvlarga qo‘sildi:

Kelishuvlarga a’zo bo‘lish:

- O‘zbekiston Respublikasi tomonidan maq’ullangan transport vositalari turini kelishuvlarga a’zo bo‘lgan boshqa davlatlar tomonidan tan olinishiga;
- Mexanik transport vositalarini standartlashtirish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha qabul qilinayotgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni olish;
- Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YIK) doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarga takliflar kiritish, hujjatlarni ishlab chiqishda hamda yig‘ilishlarda ishtirok etish imkonini yaratadi.

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sun qaroriga

2-ILOVA

Katta hajmli va og‘ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashishda harakat xavfsizligini ta’minlash

qidalar qabul qilingan bo‘lib, ular 1. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida” va “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, umumiyl

foydalanishdagi avtomobil yo'llarida katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashishda harakat xavfsizligini ta'minlash hamda uni muvofiqlashtirish tartibini belgilaydi.

Og'ir vaznli va katta hajmli yuklarni avtomobil transportida tashishga ruxsatnomalar berish tartibi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tartibga solinadi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagagi 86-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2022-y., 09/22/86/0160-son — 2022-yil 1-martdan kuchga kiradi)

2. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar va tushunchalar qo'llaniladi:

avtopoyezd — tirkama (tirkamalar) ulangan mexanik transport vositasi;

katta hajmli yuk — o'lchamlari (balandligi, kengligi yoki uzunligi)ning birorta ko'rsatkichi ularni O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida tashishda mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy o'lchamlardan katta bo'lgan yuk;

katta hajmli transport vositasi — yuklangan yoki yuksiz holda o'lchamlari (balandligi, kengligi yoki uzunligi)ning birorta ko'rsatkichi ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida harakatlanishi uchun mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy o'lchamlardan katta bo'lgan transport vositasi;

kuzatuvchi maxsus avtomobil — tashish yo'nalishida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida (belgilangan tartibda to'lov asosida) yukli avtomobilni kuzatib boruvchi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining patrul avtomobili;

mahalliy tashuvchi — qonunchilik asosida o'zi egalik qiladigan avtotransportda yuklarni tashishni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi;

Oldingi tahririga qarang.

maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositasi — metrologik tekshirishdan o'tgan, foto va video suratga oluvchi, avtomatik rejimda ishlovchi, avtotransport vositalarining turi, rusumi, ro'yxatdan o'tgan davlat raqami belgisini, vazn va (yoki) gabarit parametrlarini qayd etuvchi sertifikatsiyalangan maxsus nazorat-o'lchash texnik uskunasi;

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-avgustdagagi 699-sonli qaroriga asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2018-y., 09/18/699/1818-son)

maxsus ruxsatnomalar — O'zbekiston Respublikasi hududida kelishilgan aniq yo'nalish bo'yicha katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashishga huquq beruvchi hujjat. Maxsus ruxsatnomalar avtomobil yo'liga amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda egalik qiluvchi yuridik shaxs tomonidan bir martali yoki ko'p martali tashuv uchun beriladi;

og'ir vaznli yuk — vazni ularni O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida tashishda transport vositasining g'ildirak o'qiga tushadigan og'irligi mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy miqdorlardan ortiq bo'lgan yuk;

tashishga ruxsat beruvchi tashkilot — katta hajmli va og'ir vaznli yuklar bilan avtotransport vositasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida harakatlanishga ruxsat beruvchi va harakatlanish yo'nalishini belgilovchi, yo'llarga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

tashishni kelishuvchi tashkilot — katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashish yo'nalishidagi avtomobil yo'llariga, sun'iy inshootlarga yoki aloqa yo'llari (ko'priklar, yo'l

o'tkazgichlar, temir yo'l kesishmalari va boshqalar)ga egalik qiladigan yoki ular balansida bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek harakat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati;

yuk tashish — transport vositalarining yuk bilan harakatlanishi;

yuklarni avtotransportda xalqaro tashish — yuklarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yoki tashqaridan mamlakat hududiga tashish, shuningdek mamlakat hududidan tranzit tashish;

yuklarni avtotransportda mahalliy tashish — yuklarni O'zbekiston Respublikasining davlat chegaralaridan chiqmagan holda tashish;

himoya qiluvchi avtomobil — katta hajmli va og'ir vaznli yukni transport vositasida tashishni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash uchun yukni tashuvchi yoki jo'natuvchi tomonidan ajratilgan avtomobil;

chet el tashuvchisi — qonunchilik asosida o'zi egalik qiladigan avtotransportda yuklarni tashishni amalga oshiradigan xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs.

3. Mazkur Qoidalar katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashishda foydalaniladigan transport vositalarining texnik holati, jihozlanishi va qo'shimcha jihozlari hamda ularning harakatlanishida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi.

4. Mazkur Qoidalar hajmlari va og'irlik xususiyatlari bo'yicha amaldagi davlat standartlarida ko'rsatilgan me'yorlardan yuqori bo'lgan va yo'l harakati qoidalarida belgilangan o'lchamlardan katta bo'lgan transport vositalarida yuk tashishni tartibga soladi.

Bundan tashqari, yo'l harakati havfsizligini ta'minlash sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalarini videoregistratorlar bilan jihozlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida qoida buzarliklarni oldini olish maqsadida ularni qo'llash bo'yicha normativ tartibni belgilash tadbirlarini tashkil qilinganligi ham o'zbek transportlarining ham xalqaro talablar tomon yana bir qadami deyish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 237-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq muomalaga chiqarilgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi tog'risidagi umumiyligi texnik reglament tasdiqlandi [3]. Ushbu texnik reglament tomonlarning transport vositalarini xavfsizligi talablarini uyg'unlashtirish bo'yicha xalqaro shartnomalarda ishtirok etish majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ravishda uni yangilash bo'yicha texnik reglamentga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash. Yiliga kamida bir marta ushbu qarorning 2-bandida ko'rsatilgan standartlar ro'yxatining monitoringini va ro'yxatdagি standartlarni qo'llash natijalarini hamda tomonlarning takliflarini hisobga olgan holda amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha takliflar berish vakolatini ham beradi. 2012 yil 31 dekabrgacha bo'lgan davrda ishlab chiqarilishi va komissiyaga tasdiqlash uchun taqdim etilgan: Avtotransport turi, shassi turini tasdiqlash, texnik reglamentga muvofiqligini tasdiqllovchi hujjatni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnomalar, transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida dalillar, transport vositasining tuzilishi va transport vositasining muvofiqligi to'g'risidagi dalil, uning tarkibiga kiritilgan o'zgartirishlar, xavfsizlik hujjatlari talablarini o'zgartiradi, xususan, bunday hujjatlarning raqamlari va blankalariga qo'yiladigan talablarini o'z ichiga oladi. Endi BMT ning Yevropa iqtisodiy komissiyasining texnik reglamentining ayrim talablari bilan tanishsak[4]:

1. Avtotransport vositasini ishlatilgan qismlardan ishlab chiqarish taqiqlanadi
2. M1 va N1 toifadagi transport vositalariga bamper chizig‘iga nisbatan oldinga chiqib turadigan, po‘latdan yasalgan yoki shunga o‘xhash mustahkamlik xususiyatlariga ega bo‘lgan boshqa materiallardan yasalgan konstruktsiyalarni o‘rnatish taqiqlanadi.
3. Konditsionerlar tarkibida, shuningdek transport vositalaridai shlatiladigan sovutgich uskunalarid aozonni buzuvchi moddalar va materiallarning mavjudligiga yo‘l qo‘yilmaydi.
4. Yo‘lovchilarini tijorat tashish uchun foydalaniadigan, shuningdek bolalarni tashish uchun maxsus mo‘ljallangan M toifadagi tijorat transport vositalari va cheklangan miqdordagi N toifadagi transport vositalari, shuningdek ekspluatatsiya xizmatlari transport vositalari sun'iy yo‘ldosh navigatsiya uskunalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.
- 5.Yo‘lovchilar va yuklarni tijorat tashish bilan shug‘ullanadigan M2 va M3, N2 va N3 toifali transport vositalarining takograflari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.
6. M2 va M3 toifali o‘ng qo‘mondonli transport vositasini muomalaga kiritish taqiqlanadi.

O‘zbekistonda g‘ildirakli transport vositalarining xavfsizligini ta'minlashda xalqaro talablarning qo‘llanilishi juda muhim albatta, biroq ushbu talablarni qo‘llashni bosqichma-bosqich amalga oshirgan ma‘qul. Bunga birqancha o‘ziga xos sabablar bor. Masalan, eng so‘nggi xalqaro talablarni o‘zida jamlagan avtomobil ishlab chiqarilishi-uning tannarhining keskin oshib ketishiga olib keladi. Ma'lumki, avtomobil ishlab chiqaruvchi har qanday korhona haridorlarning, avvalo o‘z xalqining moliyaviy holatini inobatga olishi zarur. Shunday ekan biz xalqaro talablar va o‘zbek xalqining iqtisodiy holati o‘rtasidagi "oltin miqdor"ni topishimiz va g‘ildirakli transport vositalari, xususan yengil avtomobillar va umuman O‘zbekistondagi harqanday transport sanoatini manashu miqdorga parallel ravishda olib borishimiz kerak. Muhibi shundaki, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar O‘zbekiston va xatto ta‘bir joiz bo‘lsa, butun O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy holatiga juda mos keladi. Bu esa O‘zbek avtosanoatida istiqbolli yo‘l tanlanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston g‘ildirakli transport vositalariga qo‘yiladigan talablarni qo‘llashda eng optimal va samarali yo‘l tutmoqda, bu albatta o‘zining ijobjiy natijasini ko‘rsatadi va ko‘rsatmoqda. Mana shu natijalarni yanada yaxshilash uchun biz ushbu sohada chuqur bilimga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashimiz va manashu soha vakili sifatida o‘z shahsiy mas’uliyatimizni unutmasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.google.com>.
2. <http://www.lex.uz>. 2012-yil 12-fevraldaggi PQ -3526-sonli "Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida"gi qarori.
3. <https://www.lex.uz/cyrl/page/view?id=19>. Vazirlar mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 237-sonli qarori.
4. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining texnik reglamenti. unece.org/transportvehicle-regulations/working-party-general-safety-provisions-introduction.
5. <https://lex.uz/acts/-1923902#-1926586>